

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov

Farg'ona viloyatini Rossiya imperiyasining xom ashyo bazasiga aylantirilishi
(XIX asrning ikkinchi yarmi)..... 203

M.M.Temirova

O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari 208

Q.Sulaymonov

Iqtisodiyotni globallashuvida informatsiyaning o'rni 213

X.E.Xodjamberdiyev

Ikkinchi jahon urushi yillarda O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirilishi va uning aholi turmush tarziga ta'siri..... 216

A.A.Xakimov, O.Sh.Ubaydullayev

Farg'ona vodiysi shaharsozlik madaniyatining xususiyatlari va rivojlanishi
(Sho'rabashot dehqonchilik madaniyati misolida)..... 222

M.M.Abdullayeva

Zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi
(Namangan viloyati misolida) 226

F.Abdurasulova

Buxoro amirligida diniy ta'llimning Amir Shohmurod va Amir Haydar hukumronligi
davrida rivojlanishi 232

A.A.Aloxunov

Yangilangan saylov tizimi – yurt taraqqiyotining kafolati 236

M.B.Siddiqov

Ikkinchi jahon urushi yillarda pensiya tizimi 241

G.A.Abdug'aniyeva

Harbiy xizmatga chaqiruvlarda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalasi 247

N.V.Karimova

Farg'ona vodiysi antik davr shaharlari tarixiy–topografiyasining o'rganilishi..... 252

ADABIYOTSHUNOSLIK**A.G.Sabirdinov**

Xudoyerberdi To'xtaboyevning qahramon yaratish mahorati 257

G.V.Abdullayeva

Bolalar she'riyatida lirik qahramon masalasi..... 260

S.Q.Mamatova

Nuh Alayhissalom obrazining tarixiy asoslari..... 267

N.Y.O'roqova

Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari talqini 271

D.A.Qahharova

Lirikada ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili..... 280

S.A.Xaqnazarova

An'ana va novatorlik: nazariy asos, takomil va turlar 287

M.Islomova

Hayot haqiqati va badiiy tafakkur 290

A.A.Qayumov, D.G'.Gafurova

Badiiy detalning poetik vazifasi (X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida) 294

Y.B.Eshmatova

Turk hikoyachiligidagi an'ana va yangilanishlar sintezi..... 299

Д. О.Турдалиев

Интеграция устного народного творчества в сказках а.с. пушкина: фольклорные корни и литературные трансформации 303

F.B.Sultonqulova

Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon tabiatи 306

G.A.Jurayeva

Bolalar she'riyatida shakliy -mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar..... 310



УО'К: 330.34:004

IQTISODIYOTNI GLOBALLASHUVIDA INFORMATSIYANING O'RNI**РОЛЬ ИНФОРМАЦИИ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ГЛОБАЛИЗАЦИИ****ROLE OF INFORMATION IN ECONOMIC GLOBALIZATION****Sulaymonov Qurbanali** 

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya

Ushbu maqolada iqtisodiyotni globallashuvida informatsiyaning o'rni, axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelishi va jadal rivojlanish yo'lliga o'tishi, jamiyatimizga ham katta o'zgarishlar olib kirishi, dunyoda umumiy axborotlashgan hamjamiyat shakllanishi, iqtisodiy sohasida axborot muhim o'r'in egallaishi, axborotning tez va sifatli aylanishini ta'minlash mamlakat taraqqiyoti va ravnaqining osh mezoniga aylanishi tahlil qilingan.

Abstract

In this article, the role of information in the globalization of the economy, the introduction of information-communication and computer technologies and their rapid development, bringing great changes to our society, the formation of a common information society in the world, the importance of information in the economic sphere , it was analyzed that ensuring fast and high-quality circulation of information becomes a key criterion for the development and prosperity of the country.

Аннотация

В данной статье рассматривается роль информации в глобализации экономики, внедрении информационно-коммуникационных и компьютерных технологий и их стремительном развитии, приносящих большие изменения в наше общество, формировании общего информационного общества в мире, значении информации в экономической сфере, проанализировано, что обеспечение быстрого и качественного обращения информации становится ключевым критерием развития и процветания страны.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, globallashuv, informatsiya, axborot-kommunikatsiya, kompyuter texnologiyalari, axborotlashgan jamiyat, axborotlashuv tizimlari, telekommunikatsiya.

Ключевые слова: экономика, глобализация, информация, информационно-коммуникативные, компьютерные технологии, информационное общество, информационные системы, телекоммуникации

Key words: economy, globalization, information, information-communication, computer technologies, information society, information systems, telecommunications

KIRISH

XX asr oxirlaridan yuz bera boshlagan "axborot inqilobi" iqtisodiy sohada ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi, xususan, fan, ta'lif va madaniyat rivoji uchun asosiy shartlardan biri – turli sohalarga oid zarur axborotlarni tezkorlik bilan olish imkoniyatiga bog'liqdir.

Bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalariga axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelgani va jadal rivojlanish yo'lliga o'tgani jamiyatimizga ham katta o'zgarishlar olib kirdi. Natijada insoniyat axborotlashtirish sohasida haqiqiy inqilobiy o'zgarishlar davrini boshidan kechirmoqda. Dunyoda umumiy axborotlashgan hamjamiyat shakllanmoqda. Bu o'zgarishlar asosini axborotlashtirish, telekomunikatsiya va kompyuter texnologiyalari konvergensiysi negizida axborot uzatish va iste'molchiga etkazib berishning eng zamonaviy va samarali vositalari dunyoga kelayotgani tashkil etadi. Natijada, XXI asr – "axborotlashgan jamiat asri" deb e'tirof etilmoqda. Ya'ni, axborotning tez va sifatli aylanishini ta'minlash mamlakat taraqqiyoti va ravnaqining mosh mezoniga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Globallashuv xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan, tobora o'sib borayotgan har xil omillar (iqtisodiy va siyosiy, madaniy va informatsion omillar)ning alohida davlatlardagi ijtimoiy voqelikka

ta'siri jarayonidir. Hozirgi davrda globallashuv jarayonida, ya'ni bir butun sivilizatsiyalarni shakllantirish va yangi planetar tafakkur usuli zarur deb, hisoblaydilar. Bundagi g'oya: har qanday yangi texnologik keskin o'zgarish jamiyatning faqat ishlab chiqarish kuchlaridagina emas, insonning hamma turmush tarzida ham chuqr o'zgarishlarga sabab bo'ladi[1]. Jamiyatdagi bunday yangi texnologik o'zgarish (jamiyat informatsiyasi bilan bog'liq) shunday tashkil topganki, u insoniyatdagi o'zaro ta'sirining globallashuviga yangi prinsipial asos, zamin yaratadi.

Globallashuv tushunchasiga olimlar turlicha yondoshmoqdalar. Masalan, kengroq qamrovli nuqtai nazarni nazarda tutib, rus olimi YU.Fedorov yozadi: «Globallashuv ko'p hollarda yangi sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan olamning integratsiyalashuvi, butunligi va o'zaro aloqadorligi, bu esa o'ta murakkab va ziddiyatli manzaraning bir qismi, xolos»[2]. Ko'p hollarda globallashuvning bugungi bosqichi o'ziga xos o'zaro aloqalarning to'ldirilishiga olib keladi, bu xo'jalik, axborot va boshqa faoliyat ko'rinishlarida kuchayishini ko'rsatadi.

N.Jo'raev va Sh.Azizovlar ta'kidlashicha globallashuvning bu interpretatsiyasi nisbatan bir jinsli dunyoviy makonlarning shakllanishi bo'lib, ular inson faoliyati uchun katta kengliklar ochadi. Vatanimiz tadqiqotchilariga chet ellik mualliflar ham qo'shilmoqdalar. Dyuk universiteti sotsiologi baynalminalchilikdan globalashuvga o'tish davrini ta'riflar ekan, professor G.Jefferi «xalqaro masshtabdagi faoliyatning turli ko'rinishlarida funksional integratsiya va koordinatsiyalar»ning muhim farqlanishlarini ko'radi[10].

NATIJA VA MUHOKAMA

Hozirgi zamon iqtisodiyot va jamiyatning muvaffaqiyatli rivojiga axborotlashuv va telekommunikatsiya texnologiyalari garov bo'limoqda. Bu texnologiyalarning rangbarangligi va qo'llash imkoniyatlari shu qadar bepoyonki, ulardan samarali foydalanish insonning ijodkorligiga va ixtirochiligiga bog'liqligi amalda sinamoqda. Axborotlashuv jamiyatning asosiy belgisi – uning global xarakterga egaligidir. Bugun biz fuqarolik jamiyatning oyoqqa turishi asosida davlatlar va odamlar o'rtasidagi chegaralar yo'qqa chiqishini, dunyo iqtisodining tuzumi tubdan o'zgarayotganligining guvohidirmiz[4]. Axborotlashuv va telekommunikatsiya texnologiyalarning rivoji natijasi bo'lgan, bu o'zgarishlar – olimlar, siyosatchilar, axborot sohasining mutaxassislari diqqat markazida turibdi.

Mamlakatimiz iqtisodiy sohasida axborot muhim o'rinni egallaydi. Banklar va boshqa iqtisodiy sektordagi tashkilotlar (soliq tizimi, nodavlat fondlari, sug'urta agentliklari va boshqalar) uchun axborotning o'zgarishi juda tez amalga oshadi hamda hajmi tez ortadi. Ular asosida turli tahlillar o'tkazilib, qarorlar qabul qilinadi, vazifalar belgilanadi, taktika va strategiya ishlab chiqiladi. Bu axborot bevosita iqtisodiyotimiz taqdiri, qolaversa siyosatimiz asosini tashkil etadi.

Ilmiy adabiyotlarda hozirgacha globalizatsiyaning iqtisodiy omillariga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Haqiqatda, iqtisodiy omil asosiy ahamiyatga ega, u ijtimoiy hayot va davlatning barcha moddiy va ma'naviy sohalarini qamrab oladi. Ayniqsa, axborot vositalari sohasidagi inqilobni vujudga keltirdi.

Davlat iqtisodiyotining rivojlanishi va tarkibiy yangilanishi, jamiyatning ishchanlik va intellektual faolligi oshishi, davlatning obro'-e'tibori xalqaro hamdo'stligi jamiyatida yana-da kuchayishi jarayonida axborot texnologiyalarining taraqqiyoti muhim va ajralmas unsurga aylanmoqda.

Yangi O'zbekistonda yuzaga kelgan vaziyat iqtisodiyotning rivojlanishini intensiv yo'lga o'tkazishni, resurslarning barcha turlaridan oqilona foydalanishni, ishlab chiqarishga tobora takomillashgan mehnat qurollarini joriy etishni juda muhim vazifa qilib qo'yamoqda. Korxonalarni texnik jihatdan qayta quollantirish, kam chiqitli va chiqitsiz texnologiyalardan, ilg'or konstruksiyalni materiallardan foydalanish dasturlarini amalga oshirish asosidagini mehnat unumdarligini o'stirish, mahsulot sifatini yaxshilash, aholining xarid talabini qondirish, ilm-fan ishlab chiqarish tarmoqlarini, ayniqsa, elektronika, asbobsozlik, hisoblash texnikasi, aloqa vositalari ishlab chiqarishlarni rivojlantirish vazifasi kelib chiqadi[6]. Bularning hammasi axborotlashuvning ulkan imkoniyatlaridan eng samarali foydalanishni, uning bozor munosabatlariga o'tish davridagi jarayonlariga aylantirmoqda. Axborotlashuv zamonaviy dunyo taraqqiyotining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanib, jahon fan texnikasining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yutuqlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Axborotlashuv texnologiyalari iqtisodiy masalalarni hal qilishda quyidagi asosiy jarayonni o'z ichiga oladi: axborotni yig'ish va ro'yxatdan o'tkazish; uni qayta ishslash, joyiga uzatish; ma'lumotlarni

TARIX

kodlashtirish; ma'lumotlarni saqlash va ishlash; iqtisodiy axborotlarni qayta ishlash; axborotni chop etish va axborotdan foydalanish.

Ma'lumki, axborot hamma jarayonlarning yuzaga kelishida ishtirot etadi, lekin qator holatlarda ba'zi jarayonlar ishtirot etmaydi. Ularning amalga oshirilishi har xil bo'ladi[8]. Shu o'rinda ba'zi jarayonlar qaytarilishi mumkin. Axborotlarni yig'ish va ro'yxatdan o'tkazish har xil obyektlarda har xil kechadi. Bu jarayon boshqarish jarayonlari avtomatlashtirilgan xalq xo'jaligi obyekti faoliyatini aks etgan boshlang'ich iqtisodiy hisobotni yig'ish va ro'yxatdan o'tkazish, amalga oshiriladigan ishlab chiqarish korxonalari, firmalar va boshqalarda ancha murakkabdir. Axborotni yig'ish uni ro'yxatdan o'tkazish bilan birga olib boriladi.

Axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirishdan kelib chiqib, bir qator huquqiy hujjatlar hayotga tatbiq etildi.

Axborotlashish sohasida davlat ko'zlagan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: a) mahalliy, shahararo, xalqaro telefon-telegraf va pochta aloqasiga, matbuot tarqatilishiga, ma'lumotlar uzatish tarmoqlariga, shu jumladan Internet, radioaloqa tarmoqlariga, radio eshittirish va televideniega qurilish, ishlab chiqarish va xizmatlar ko'satish bo'yicha strategik jihatdan birinchi navbatda qilinishi zarur bo'lgan ishlarni amalga oshirish[11]; b) pochta aloqasi tizimining faoliyatini boshqarish, telekommunikatsiya va ma'lumotlar uzatish tarmoqlarining rivojini davlat tomonidan yo'lga solinishi, mazkur sohalarda raqobat muhitini yaratish, tegishli faoliyat turlarini litsenziyalashtirish; v) axborotlashuv tizimlari, telekommunikatsiya va ma'lumotlar uzatuvchi tarmoqlarning rivojiga hamda takomillashuviga mo'ljallangan chet el sarmoyalarini jalb etish uchun sharoitlar yaratish; telekommunikatsiya va axborotlashuv texnologiyalariga nisbatan hozirgi zamon xalqaro standartlarni tadbiq etish, mahalliy andozalar, texnik sharoitlar va talablarni ishlab chiqarish va tasdiqdan o'tkazish[12]; g) axborot resurslari bozorining rivojini tashkillashtirish, davlat boshqaruvi, biznes, sog'liqni saqlash, ilm-fan va ta'lim, shuningdek jamiyatimiz hayotining boshqa sohalarida axborot almashuvining elektron shakllariga o'tishni ko'zlab tegishli programmalar ishlab chiqarish va ularni amalga oshirishdan iborat.

XULOSA

Global lashuvning axborotlashuvi barcha mamlakatlarning iqtisodiyotiga ta'sir o'tkazadi va bu ta'sir ishchi kuchidan foydalanish, tovar ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko'rsatish, ishlab chiqarish va investitsiyalarni jalb etish, ularning bir mamlakatdan boshqasiga ko'chishi kabi omillarni o'z ichiga oladi. bularning barchasi ishlab chiqarish samaradorligini, mehnat unumdorligini, xalqaro teng huquqlar asosidagi rivojlanishni ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bernal J. The Social Function of Science. –London, 1939.
2. Арапов М.В. Информационная сфера и информатизация общества.// Информатика и культура. Новосибирск. 1990. –с.6-23.
3. Бекмурадов М. Ўзбекменталитети// Мулоқот, 2002., №2. 13-б.
4. Ващекин Н.П. Информатизация общества как феномен культуры.
5. Ващекин Н.П., Абрамов Ю.Ф. Информационная деятельность и мировоззрение. Иркутск. 1990.
6. Дронов Ф.А. Научно-технический прогресс и проблемы экономики. –М., 1973.
7. Канигин Ю.М., Калитич Г.И. Информатизация и управление научно-техническим прогрессом. Киев, 1988. С.22.
8. Каыгин Ю.М. Информатизация управления: социальные аспекты. Киев, 1991.
9. Ладенко И.С., Шапиро Э.Л., Никаноров С.П. Освоение и развитие сферы интеллектуальных систем. Новосибирск. 1988.
10. Маргулис А.В. Проблема потребности в историческом материализме. Белград, 1972. –С.52.
11. Моисеев Н.Н. Наука, глобальные модели и перспективы человечества. // Горизонты экологического знания. Социально-философские проблемы. М. Наука. 1986. с.196.
12. Чориев С.Хозирги замон мафкуравий қиёфаси. –Т., 2003. 5-б.
13. Шрейдер Ю.А. Информатизация и культура: аналит. Обзор. –М., 1991.